UDK. 575.14.11.

AS-SAOLIBIY MA'MUNIYLAR DAVRINING YETUK ALLOMASI

Eshchanov Jasurbek Allaberganovich,
Tadqiqotchi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20001759

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ma'muniylar davrining yetuk allomasi Abu Mansur Saolibiyning hayoti, faoliyati va til, adabiyotga oid yaratgan asarlari tahlil qilingan. Shuningdek, Saolibiy asarlarining tilshunoslik, adabiyotshunoslikda tutgan o'rni va ularning ilmiy ahamiyati tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Nishopur, Xorazm, Gurganj, Ma'mun, "Dorul hikma", tilshunoslik, adabiyotshunoslik, adabiy meros.*

Аннотация. *В данной статье анализируются жизнь, деятельность и творчество Абу Мансура Саалиби выдающегося филолога периода Маъмунидов, его работы, связанные с языком и литературой. Также проанализирована роль произведений Саолиби в лингвистике и литературоведении и их научная значимость.*

Ключевые слова: *Нишапур, Хорезм, Гургандж, Маъмун, "Дарул Хикма", языкознание, литературоведение, литературное наследие.*

Abstract. *This article analyzes the life, activities and works of the mature philologist of the Ma'muni period, Abu Mansur Saalibi, and his works related to language and literature.Also, the role of Saolibi's works in linguistics and literary studies and their scientific significance will be analyzed.*

Keywords: *Nishapur, Khorezm, Gurganj, Mamun, "Darul Hikma", linguistics, literary studies, literary heritage.*

Kirish. Markaziy Osiyo, xususan sharq tarixida muhim o'rin tutgan Birinchi renessans davridagi qomusiy allomalar nomi tilga olinganda tabiiyki Beruniy va uning safdoshlari nomi qayd etiladi. Ana shu safdoshlar orasida "Dorul-hikma" allomalari orasida muhim o'rin tutgan As-Saolibiy bo'lib, undan fan tarixida muhim o'rin tutgan ilmiy meros qolgan.

Ma'lumki, nafaqat Xorazm va O'rta Osiyo, balki Sharq, tarixida muhim o'rin tutgan davr bu Ma'muniylar sulolasi hukmronlik qilgan (milodiy 995-1017 yillar) davrdir. Negaki aynan shu davrda Vatanimizda taraqqiyotning yangi davri boshlanib, ilmu fanga davlat miqyosida e'tibor qaratilishi tufayli Milliy Uyg'onish-Renessans yuzaga kela boshladi. Bu borada Ma'muniylar sulolasi (995–1017-yillar) hukmronligi yillari ana shu Renessans davrining uzviy bir qismidir.

Adabiyotlar tahlili. Ma'muniylar sulolasi davriga oid Shohruhmirzo Ismoilovning dissertatsiyasi va monografiyasi garchi shu davrga oid davlat boshqaruvi, tangalari, pul muomilasiga bag'ishlangan bo'lsada, tadqiqotlarda "Dorul-hikma", xususan shu davrdagi olimlar faoliyati ham tahlil etilgan. Shu singari

Beruniyga bag‘ishlab hozirgacha qanday ilmiy ishlar, asarlar yaratilgan bo‘lsada, ularda ham As Saolobiy haqida fikr yurtiladi.

Biroq, professor Ismatulla Abdullayevgina maxsus tadqiqot olib borib, ko‘p yillar mobaynida bo‘yicha tadqiqot ishlari olib bordi va 1992 yilda “Abu Mansur as-Saolibiy nomli kitob yaratdi.Shuningdek, Ismatulla Abdullayev“ Buxoroning arabiynavis shoirlari” nomli 1965 yilda ham risola yaratgan va unda ham As-Saolibiy faoliyatiga to‘xtalib o‘tgandi.

Bundan tashqari Ismatulla Abdullayev, 1990 yil “Fan” nashriyotida Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad as-Saolibiyning “Tatimmat al-yatima” („Yatimmat ad-dahr“ to‘rtinchi qismining qo‘shimchasi) nomli asarini nashr etdirdi. Shu tarzda Ma’muniylar davriga oid allomaning faoliyatiga oid tadqiqotlar yaratish, olim faoliyatini tahlil qilishda Ismatulla Abdullayevning asarlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolani yozishda ham ana shu olim tadqiqotlari va As-Saolibiyning 1990 yilda “fan”nashriyotida chop etilgan asariga tayanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda ilmu fandagi muhim tamoyil bo‘lgan xolislik, haqqoniylikga amal qilindi va As-Saolibiyning 1990 yilda nashr etilgan asari tahlil qilib chiqildi. Shuningdek, Ismatulla Abdullayevning asarlari, ilmiy tadqiqot ishlari ham shu davrga oid boshqa manbalar bilan taqqoslandi.

Tahlillar va natijalar. “Dunyo olimlarining e’tirof etishicha, ana shu sulola, ya’ni Ma’mun ibn Muhammad. (995-997 yillar hukmdorlik qilgan), Ali ibn Ma’mun (997-999 yillardagi hukmdorligi), Ma’mun ibn Ma’mun (999-1017 yillardagi) hukmdorlik qilgan davrda Xorazmda sharqning yetuk ilmu fan namoyandalariga yetarlicha imkoniyat, imtiyozlar yaratib berilgan.

Bu borada 1004-1017 yillarda Gurganjda faoliyat ko‘rsatgan, hukmdor Ma’mun ibn Ma’mun asos solgan “Dorul ul hikma”-ya’ni akademiya nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun Sharqda tamaddun vazifasini o‘tagan. Ushbu dargohda Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980-1037), Abu Mansur Ibn Iroq (958-1036), Abu Sahl Masihiy (970-1042), Abul Hayr Ibn Hammor (942-1018), Abu Mansur as-Salobiy (961-1038), Abu Ali Ibn Miskovayh, (vafoti 1030), Abdulhakim Muhammad ibn Abdulmalik as-Solih, Al-Xorojiy, al-Hamdamkiy, abu Abdulloh Al-Biyan Al-Naysaburiy, Ahmad Ibn Muhammad as-Suhayliy al-Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy, Mahmud Hamid Ibn Xidr al-Xo‘jandiy kabi ko‘plab fan namoyandalari ilmiy-tadqiqotlar olib borishgani fikrimiz isbotidir” [1].

Bu allomalar orasida o‘z davrining yetuk filologi sifatida mashhur Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad as-Saolibiy va u yaratgan asarlar alohida ahamiyatga ega.As-Saolibiy 961-yili Eronning Nishopur shahrida tug‘ilgan bo‘lib, garchi u yoshligidan ilmli bo‘lsada uni qo‘llab quvvatlaydigan hukmdor bo‘lmagani sabab

po‘stindo‘zlik qilib hayot kechirgan. Ana shunday iqtidorli yigitning Abu Rayhon Beruniy bilan tanishgani, uning taqdirida muhim rol o‘ynadi.

“Dorul-hikma”dagi Abu Nasr ibn Iroq va Beruniylarning taklifi bilan Gurganjga kelgan As Saolibiy hukmdor Ma’mun yetkazib bergan yetarlicha sharoit tufayli, til va adabiyotshunoslikka, tarix hamda mantiqqa oid muhim asarlar yaratdi.

Saolibiyning ilmu fan uchun muhim o‘rin tutuvchi 51 ta asari bo‘lib, ular orasida tazkira janrida yozilgan va o‘zida g‘oyatda qimmatli filologik ma’lumotlarni jamlagan “Yatimat ut-dahr” alohida ajralib turadi.

Saolibiyning Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr” (“Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi”) nomli, qisqa tarzda “Yatima ad-dahr” deya ataladigan asarida 10-11 asrlarda Xorazmda kechgan jamiyatdagi jarayonlar, ayniqsa vohaning tabiati, iqlimi, hayvonot dunyosi, shuningdek hozirgacha adabiy merosi tadqiq qilinmagan, biroq o‘z davrining arabi tilida ijod qilgan mashhur shoirlari faoliyatiga doir ko‘pgina qimmatli ma’lumotlar bor.

“994 yilda yozish boshlanib 1000 yilda yozib tugallangan, 1020 yilda ayrim tuzatish, yangiliklar kiritgan, tahrir qilingan “Yatimat at dahr” nomli to‘rt qismdan iborat, ushbu asarning to‘rtinchi bobida Xorazmlik quyidagi ijodkorlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

Bular Abu Bakr Muhammad al-Xorazmiy, Abu Said Ahmad ibn Shabib ali-Shabibiy, Abul Hasan Ma’mun ibn Muhammad ibn Ma’mun, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim at-Tojir al-Vazir, Abul Muhammad Abdulloh ibn Ibrohim ar-Raqqoshiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Hamid al-Xorazmiy, Abul Qosim Ahmad ibn Zirg‘om nomli yetti nafar shoirlardir.Tazkirada shoirlarning qasida, hajv tarzidagi ijod namunalari berilgan” (2). Saolibiy Xorazmlik shoirlarning ijodigagina emas, ularning inson sifatidagi fe’lu atvoriga ham to‘xtalib o‘tadiki, bu o‘sha ijodkor shaxsiyatini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Misol uchun, As Saolibiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid al-Xorazmiy haqida shunday ta’rif berib o‘tadi: *“Xorazmning eng yaxshilarining yaxshisi va uning eng ko‘zga ko‘ringan kishisi, har qanday fazilat egasi, haqqoniy so‘z va buyuk adabni o‘zida mujassamlashtirgan, sochilgan fazilatlarni o‘zida jamlagan va maqtalgan marvarid donalarini nazmga tizgandi.Uning hayoti go‘zallik qismlarini to‘la egallagan, nasri sochilgan atir gulday, nazmi terilgan durday edi”*.

“Abu Mansur Saolibiy Xorazmga, “Dorul hikma”ga kelishidan oldin Buxoroda ham ma’lum bir muddat bo‘lgan va shu bois o‘zi tanishgan, yoki oldin yashab o‘tgan ijodkorlarning adabiy merosini o‘rganib, “Yatimat at-dahr” asarida ular to‘g‘risidayam to‘xtalib o‘tgandi. Asarda Buxorolik 47 nafar shoirlar to‘g‘risidagi

noyob ma'lumotlar ham bor. Saolibiy asarida ularning hayoti va faoliyatigagina emas, she'rlariga ham to'xtalib, ulardan ayrim parchalar ham keltirib o'tgan.

Bundan tashqari, Abul Qosim ad-Dovudiy,Abu Muhammad al-Hiraviy, Abu Sa'd al-Hiraviy,Zafar al-Hiraviy, Abu Mansur al-Hiraviy, as-Soviy singari ijodkorlar haqidagi ma'lumotlar ham Saolibiyning "Yatimat at-dahr" asaridan o'rin olgan bo'lib, ular asli Hirotlik shoirlar bo'lib, o'sha davrda Buxoroda yashab ijod qilishgandi" [3].

Shu kabi Saolibiyning ushbu tazkirasida Sharqdagi Nishopur, Tus, Balx singari shaharlarning ijodkorlari to'g'risidayam ko'plab noyob ma'lumotlar, ularning ijodi va hayotiga ta'riflar berib o'tilgan..

Xullas, Nishopurlik Saolibiyning asarlari orqali 10–11 asrlardagi Xorazm, Buxoro, Eronda kechgan jarayonlar, shuningdek ushbu davlatlarning tabiati, hayvonot dunyosi, shu bilan birga esa adabiyotini ham o'rganishda muhim o'rin tutadi. Arab tilida bitilgan Abu Mansur as Saolibiyning asarlari o'z davridan bugungi kungacha sharq, qolaversa, butun dunyoga Xorazm va Buxoro to'g'risida, ayniqsa ijodkorlari haqidagi noyob ma'lumotlarni o'zida aks etdirgani bilan g'oyatda qimmatli asarlar hisoblanadi.

"Saolibiyning 124 nafar shoir hayoti, ijodi ta'riflangan mashhur "Yatimat ad-dahr" asari nusxalari Fransiyaning Parij milliy kutubxonasida, Avstriyaning Vena kutubxonasida, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida noyob asar sifatida saqlanmoqda. Asarni arabchadan eronlik Abbos Iqbol fors tiliga, Namanganlik filolgiya fanlari doktori professor Ismatullo Abdullayev esa o'zbek tiliga tarjima qilib nashr etdirishgan" [4].

Xulosa. As-Saolobiy o'z davridagi "Dorul-hikma" allomalari orasida muhim o'rin tutgan olimlardan bo'lganligi, uning yaratgan ilmiy merosidan ham ma'lum. Garchi alloma As-Saolibiy 1038-yilda vafot etgan bo'lsada va undan "Zamona ahlining fazilatlari haqida yagona durdona", "Ma'lumotlar kitobi", "Latif axborotlar", "Arab tilidan foydalanishda adab quyoshi", "Nodir so'zlar va suhbat kitobi", "Afzal xulqlar", "Eron podshohlari haqida ma'lumotlar" singari tarix, mantiq va filologiyaga oid 51 ta asar noyob meros bo'lib qolgan. Ushbu asarlar, ularning tahlili, nashr qilgan holda bugungi va kelajak avlodga yetkazish esa tarixchi, filolog, sharqshunoslar olimlar zimmasidagi mas'uliyatli vazifadir.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shermuhammedov P. Beruniy. – Toshkent, 2008.
2. Abdullayev I. Abu Mansur as-Saolibiy. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
3. Abdullev I. Buxoroning arabiynavis shoirlari. – Toshkent: Fan, 1965.
4. Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad as-Saolibiy. Tatimmat al-yatima ("Yatimmat ad-dahr" to'rtinchi qismining qo'shimchasi). – Toshkent: Fan, 1990.